Materiallar to'plami · Conference Proceedings
"ZAMONAVIY TADQIQOTLAR VA BARQAROR RIVOJLANISH" respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi
04 August 2026
UDK 82
FILOLOGIYA

USMON AZIM TRIPTIX HIKOYALARIDA KOMPOZITSION YAXLITLIK POETIKASI

Poyonbek Shavkat o'g'li Javliyev*
Buxoro davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi
✉ javliyevpoyon066@gmail.com

ANNOTATSIYA

Maqolada Usmon Azimning "Kuz kunlari... Bahor kunlari..." triptix hikoyalari kompozitsion yaxlitlik nuqtayi nazaridan tahlil qilinadi. Triptixni tashkil etuvchi "Ishxonadagi ko'rgazma", "Bir dasta qizil gul" va "Xodimlar bo'limi boshlig'I" hikoyalarining syujet-kompozitsion bog'liqligi, obrazlar tizimi, ramziy detallar hamda psixologik tasvir vositalari yoritiladi.

Kalit so'zlar

Usmon Azim, triptix, kompozitsion yaxlitlik, syujet, obraz, psixologizm, ramziy detal, badiiy talqin, g'oyaviy-estetik konsepsiya, hikoya.

DOI: 10.5281/zenodo.21743049

KIRISH

Zamonaviy o'zbek nasrida janriy va kompozitsion izlanishlar badiiy tafakkurning yangilanishi, tasvir usullarining takomillashuvi hamda muallif individual uslubining shakllanishida muhim omillardan biri hisoblanadi. XX asrning ikkinchi yarmi va XXI asr boshlarida o'zbek hikoyachiligida an'anaviy syujet-kompozitsiya tamoyillari bilan bir qatorda, badiiy voqelikni ko'p qatlamli ifodalash imkonini beruvchi yangi kompozitsion modellar ham yuzaga keldi. Shunday izlanishlardan biri "triptix shakli bo'lib, u uch mustaqil, ammo mazmun va g'oya jihatidan o'zaro bog'langan qismlar orqali yaxlit badiiy konsepsiyani yaratishga xizmat qiladi". [1,35.]

"Triptix dastlab tasviriy san'atda uch qanotli asar shakli sifatida shakllangan bo'lsa, keyinchalik adabiyotga ko'chib", kompozitsion qurilishning o'ziga xos modeli sifatida qo'llanila boshladi. Usmon Azimning triptix hikoyalari ham xuddi shunday ahamiyatga ega bo'lib, jumladan, "Professor Qozoqboy Yo'ldoshev: "ijodkorning "Ishxonadagi ko'rgazma", "Bir dasta qizil atirgul", "Xodimlar bo'limi boshlig'i" deya nomlangan triptix – uchlik hikoyasida ezgulik, go'zallik, erk va odamiylik singari yuksak tuyg'ular insonni ulug'lashi-yu odamlararo munosabatlarning chigal va tushunarsizligi original voqealar tasviri asnosida ulkan mahorat bilan ko'rsatilgan. Bu asarlar tasvirning haqqoniy va ta'sirchanligi, tilining jozibasi, syujetning puxtaligi, personajlar ruhiyatining teran ifodasiga ko'ra ochun hikoyachiligining eng sara namunalari bilan bemalol bellasha oladi", deya yuksak baholaydi." [2,5.]

Triptixning birinchi qismi bo'lgan "Ishxonadagi ko'rgazma" hikoyasi butun turkumning kompozitsion markazini tashkil etadi. Keyingi ikki hikoyada yuz beradigan ruhiy va badiiy jarayonlar aynan shu hikoyada boshlangan ichki silkinishning mantiqiy davomi sifatida namoyon bo'ladi. Shu sababli mazkur hikoya triptix kompozitsiyasining ekspozitsiyasi va tugunini hosil qiladi.

Hikoyaning bosh qahramoni Asror Valiyevich tashqi tomondan mukammal rahbar sifatida tasvirlanadi. U intizomli, vazmin, boshqaruv madaniyatiga ega, tashqi ko'rinishida biror ichki iztirob sezilmaydigan insondir. Biroq yozuvchi qahramonning tashqi mukammalligi ortida yashirinib yotgan ruhiy bo'shliqni asta-sekin ochib

boradi. Shu jihatdan Asror Valiyevich obrazi ikki qatlamli xarakterga ega: tashqi tomondan muvaffaqiyat timsoli bo‘lsa, ichki olamida esa o‘zligini ortga surgan, muhabbati uchun hayot mazmunidan uzoqlashgan fojiaviy inson yashaydi.

Hikoyada yana bir obraz Boqibek obrazining Van Gog nomi bilan atalishi tasodifiy emas. Bu nom mashhur golland rassomi Vincent van Gogh shaxsiga ishora qiluvchi intertekstual detal bo‘lib, qahramonning san’atga sadoqati, dunyoni boshqacha idrok etishi va ijodkor tabiatini anglatadi. “Boqibek ishxonada oddiy xodim emas, balki san’atning tirik ruhi sifatida tasvirlanadi”. [3,78.]

Boqibek chizgan suratlar orqali ko‘rgazmaning tashkil etilishi bilan ishxonadagi odatiy tartib buziladi. Rasmiy muhit, buyruqbozlik va bir xillik hukm surgan makonga san’at kirib kelishi natijasida xodimlarning ruhiy olamida kutilmagan o‘zgarishlar yuz beradi. Har bir qahramon suratlar orqali o‘z ichki dunyosi bilan yuzma-yuz qoladi. Kimdir yoshlik xotiralarini eslaydi, kimdir armonlarini his qiladi, yana kimdadir unutilgan tuyg‘ular uyg‘onadi. Qolaversa, hikoyada ijodkor bu dunyoga sig‘maydigan ilohiy qudrat egasi sifatida tasvirlanadi. Uning kuchi hech kim anglamaydigan, hech kim tushunmaydigan hislar orqali ochiladi.

Triptixning ikkinchi qismi “Bir dasta qizil gul” hikoyasi bo‘lib, unda voqealar markaziga Jamila G‘ofurovna obrazi olib chiqiladi. Muallif ushbu qahramon timsolida zamonaviy insonning tashqi ijtimoiy qiyofasi bilan ichki ruhiy olami o‘rtasidagi ziddiyatni badiiy-psixologik talqin etadi. Jamila G‘ofurovna ishxonadagi oddiy xodima bo‘lishiga qaramay, samimiyligi, xushmuomalaligi, odamlar bilan tez til topisha olishi, atrofidagilarning hurmatini qozonganligi bilan xarakterlanadi. Biroq yozuvchi qahramonning tashqi xotirjamligi ortida kechayotgan murakkab ruhiy iztiroblarni bosqichma-bosqich ochib boradi. Hikoya syujetidagi asosiy burilish nuqtasi yuqoridagi kabi Boqibek tomonidan tashkil etilgan ko‘rgazmada Jamila G‘ofurovnaning bir dasta qizil gul tasviriga duch kelishi bilan yuzaga keladi. Kompozitsion nuqtayi nazardan ham “Bir dasta qizil gul” hikoyasi triptixning markaziy bo‘g‘ini vazifasini bajaradi. Birinchi hikoyada boshlangan badiiy-ruhiy chiziq aynan shu qismda chuqurlashadi. Obrazlar o‘rtasidagi ichki bog‘liqlik va g‘oyaviy mushtaraklik yanada ravshanlashadi. Shu bilan birga, hikoya yakunida hosil qilingan ruhiy holat va badiiy vaziyat triptixning uchinchi qismi – “Xodimlar bo‘limi boshlig‘i” hikoyasiga tabiiy kompozitsion ko‘prik vazifasini bajaradi.

Triptixning uchinchi qismi “Xodimlar bo‘limi boshlig‘i” hikoyasi bo‘lib, unda voqealar markaziga Muyassar Qodirovna obrazi olib chiqiladi. Ushbu qahramon “triptixning avvalgi ikki qismidagi Asror Valiyevich va Jamila G‘ofurovna obrazlaridan xarakteri, dunyoqarashi hamda hayotiy qadriyatlari bilan keskin farqlanadi”. [4,23.] Agar oldingi hikoyalarda ijod, muhabbat va inson ruhiyatining nozik qatlamlari badiiy tadqiq etilgan bo‘lsa, mazkur hikoyada inson tabiatining hissiyotdan ko‘ra tartib, intizom va rasmiylikka asoslangan jihatlari tasvir markaziga chiqariladi.

Muyassar Qodirova butun faoliyati davomida mehnat intizomi va xizmat vazifalarini ustuvor qadriyat deb bilgan shaxs sifatida gavdalanadi. Hikoya uning ishdan bo‘shashi voqeasi bilan boshlanishi kompozitsion jihatdan muhim ahamiyat kasb etadi. Muallif voqealar rivojini aynan shu nuqtadan boshlash orqali qahramonning ijtimoiy maqomidan ko‘ra uning individual xarakterini ochishga intiladi. Muallif qahramonga aniq axloqiy hukm chiqarmaydi, aksincha, uning fe’l-atvori va hayotiy qarashlarini kitobxon mushohadasiga havola etadi. Bu esa asarning interpretatsion imkoniyatlarini kengaytirib, kitobxonni obraz mohiyatini mustaqil anglashga undaydi.

XULOSA

Kompozitsion nuqtai nazardan, “Xodimlar bo‘limi boshlig‘i” triptixning yakunlovchi qismi sifatida oldingi ikki hikoyada boshlangan g‘oyaviy va ruhiy chiziqlarni umumlashtiradi. Asror Valiyevich ijod va san’atni, Jamila G‘ofurovna muhabbat va sog‘inchni ifodalasa, Muyassar Qodirova tartib, rasmiylik va hissiy cheklanishni ifodalaydi. Ana shu uch xil xarakter va uch xil ruhiy olamning qarama-qarshi qo‘yilishi triptixning kompozitsion yaxlitligini ta’minlaydi hamda inson tabiatining turli qirralarini bir badiiy makonda mujassamlashtiradi. Natijada yozuvchi uch mustaqil hikoya orqali zamonaviy insonning ma’naviy, ruhiy va ijtimoiy qiyofasini ko‘p qatlamli badiiy tizim sifatida namoyon etishga erishadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Usmon Azim. Judu. –Tosheknt. 2003.

2. Olim Toshboyev. Adabiyot – jamiyat immuniteti // https://Yuz.uz. 2020..
3. Usmon Azim. Tanlagan asarlar. 7-jild. Toshkent. 2023.
4. Ulug‘ov A. Adabiyotshunoslik nazariyasi. Toshkent. 2017.
5. https://uzhurriyat.uz/